FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDAGI MAJOZIY TIMSOLLAR

ChDPU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
Mavlonova Mohigul Uralovna
mavlonovamohigul@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida uchraydigan ramziy obrazlar tahliliga e’tibor qaratilgan. Xususan, tuproq va suv timsollarining badiiy matn syujetida tutgan o‘rni, ma’naviy-falsafiy mazmuni hamda badiiy vazifalari keng yoritilgan. Shoir ular orqali asarga chuqur irfoniy va tasavvufiy ma’nolarni singdirgan hamda qahramonlarning ichki dunyosi bilan tabiat uyg‘unligini ifoda etgan.

АННОТАЦИЯ

В данной статье предметом исследования является анализ символических образов в поэме Алишера Навои «Фархад и Ширин». Особое внимание уделяется символам земли и воды, их месту и функции в сюжетной структуре произведения, а также их духовно-философскому содержанию и художественной роли. Посредством данных символов поэт наполняет текст глубокими ирфанийными и суфийскими смыслами, формируя представление о гармонии внутреннего мира героев с природой.

ABSTRACT

This article examines the symbolic imagery in Alisher Navoi’s poem “*Farhad and Shirin”*. Special attention is given to the symbols of earth and water, their position and function within the narrative structure, as well as their spiritual-philosophical significance and artistic role. Through these symbols, the poet infuses the text with profound mystical and Sufi meanings, thereby articulating the harmony between the characters’ inner world and the natural environment.

Irfoniy mavzudagi dostonlar Sharq mumtoz adabiyoti tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday asarlarda obyektiv borliq va ilohiyot haqidagi tasavvurlar majoziy timsollar va ramzlar orqali bayon etiladi. Zero, she’riyat tili va irfoniy til bir narsada umumiylikka ega ekan – ular har ikkisi ham ramz-u ishoralar, timsollar bilan so‘zlaydilar. [1.40.] Adabiy-badiiy ijodda majoziy tasvir mahoratining yuzaga kelishi, avvalo, islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni karim bilan ham u yoki bu darajada bog‘liqdir. Qolaversa, hadislarda ham ramziylik ifodasi uchraydi. “Muhammad payg‘ambar qissasi”da keltirilishicha, Rasululloh (s.a.v.) shunday marhamat qilganlar: “So‘zni majozli qilishga buyurildim. So‘zni majozli qilmoq yaxshidir”. [2.101.] Professor I.Haqqulovning ta’biricha, tasavvuf olami – majoz va majoziy fikrlashga keng erk bergan o‘ziga xos murakkab bir olam. Tasavvuf ahli so‘z, ibora va tushunchalarning asil ma’nolarini o‘zgartirib, ya’ni ta’vil asosida ular orqali yangi-yangi ramziy mazmun va muddaolarni ilgari surishga intilganlar. [3.77.] Bu irfoniy-tasavvufiy asarlarda murakkab falsafiy va ma’naviy ifodaning shakllanishiga xizmat qilgan.

Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi obrazlarning aksariyati majoziy timsollardir. Jumladan, tuproq, tog‘, tosh, g‘or, suv... Mazkur maqolamizda tuproq va suv ramzlari haqida fikr

yuritamiz. Tuproq nafaqat moddiy borliqning to‘rt asosiy unsuridan biri, balki inson yaratilishining manbayi hamdir. Qur’oni karimdagi “Albatta, Biz odamzotni quruq tuproqdan yaratdik”. (Hijr,26) yoki “U sizlarni tuproqdan yaratdi” (G‘ofir, 67) oyatlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Shu bois, tuproq boshqa mavjudotlarga nasib etmagan ilohiy karomatga sazovor bo‘lgan. Bu fikr dostonda quyidagicha ifoda topgan:

Tushub tuprog‘ ichiga zor-u mahjur,
Ko‘zum chun topti ul tuprog‘din nur.

Baytda ko‘zda tutilgan mazmun orqali shoir tuproqqa bosh qo‘yib zorlik va mahjurlik holatida “nur”ni ko‘radi. Bu “nur” tasavvufdagi “Nuri Muhammad” bilan aloqador. Mutasavviflar Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ga “ilk nur, so‘ng payg‘ambar” deya ta’rif berishgan. Sayr-u suluk yo‘lidagi murid o‘zi yetishgan maqomiga qarab, “nuri Muhammad”ni turli shakl va darajalarda anglay olgan.[3.27.] Bizningcha, dostonda shoirning “tuproqqa bosh urgan holda nurni topishi” ham irfoniy ma’noga ega. Tasavvufda tuproq siniqlik, xoksorlik, itoat va kamtarlikning timsolidir. Bu ma’naviy fazilatlar Farhod tabiatiga bolaligidanoq singganligini quyidagi bayt orqali anglash mumkin:

Necha tufrog‘ esa jismi haqirim,
Vale bir-ikki so‘zdin yo‘q guzirim.

Solik haqiqiy kamolotga erishishi uchun manmanlik, kibr va nafsdan tozalanishi kerak. Shu sababli, Farhod o‘zini tuproq bilan teng tutib, tuproq ichida yo‘qlikka yuz tutganini aytadi:

Qazodin o‘yla tufroq o‘ldi zotim,
Kim ul tufroq aro gum bo‘ldi otim.

Bu misralarda shoir insonning asl yaratilish manbayi tuproq ekanligi va oxir-oqibatda yana unga qaytishiga ishora qilmoqda. “Tuproq aro ismning yo‘qolishi” esa nafs va shaxsiy manfaatdan tozalanish, ya’ni o‘zini “yo‘q”(fano) deb bilish orqali “borlik” haqiqatiga yuksalishni ifodalaydi.

Darhaqiqat, azaldan ishq bilan tug‘ilgan insonning qismati ham kamtarona, oddiy kechishi tabiiy holdir. Ishq Alloh tomonidan o‘zining suygan bandalariga beriladigan ilohiy ne’matdir. Bu ne’mat egalari dunyoviy hukmronlik, mansab va mol-davlat orzusidan yiroq bo‘lishadi. Haq muhabbati ularning butun qalbini, ruhini egallab, johillik va manmanlikka o‘rin qoldirmaydi. Shu tufayli bunday insonlar uchun “tuproq”, ya’ni xokirahlik va kamtarlik eng oliy nasibadir. Quyidagi misralarda Navoiy Farhod tabiatidagi shu nuqtalarga e’tibor qaratadi:

Sangakim ro‘zi etti podshohliq,
Mening qildi nasibim xokirahliq.

Xusravga toj-taxt, hukmronlik nasib etgan, biroq haqiqiy ma’naviy qimmatga ega bo‘lgan xokirahlik va xokisorlik Farhodga nasiba qilingan.

Shu o‘rinda aytish joizki, Navoiy bu fazilatlarni Farhod timsolida aks ettirar ekan, u orqali o‘zining tasavvufiy qarashlarini ham ifoda etadi. Ma’lumki, Navoiyning tabiatida ham xokisorlik, kamtarlik, oddiylik, manmanlik va kibrdan qochish xislatlari mujassam bo‘lgan. Xondamirning ta’kidlashicha, Sulton Husayn Boyqaro Navoiyga ortiqcha ehtirom va inoyat ko‘rsatgan vaqtlarida shoir bir xilvat joyga borib, boshiga tuproq sochar va o‘z-o‘ziga shunday nasihat qilar ekan: “Bu dunyodagi yuqori mansab va martabalarga yetishganingdan manmanlik va kibrga berilib ketmagin. O‘zingni yo‘ldagi bir tuproq bilib, imkoni boricha faqirlar va miskinlarning ehtiyojlarini qondirish va ularga yordam berishga harakat qilgin”. [4.105.] I.Haqqulga ko‘ra, aynan Farhod obrazi orqali ilgari surish ko‘zda tutilgan milliy, tarixiy va umuminsoniy orzu va haqiqatlarning ma’naviy ildizi Navoiy shaxsiyatidadir. [5.53.] Tuproq bilan tenglashish nafaqat ilohiy irodaga bo‘ysunish, balki qalb pokligiga intilishni ham anglatadi. Farhod uchun hukmdorlik ham, podshohlik ham tuproqdan yuqori emas, chunki haqiqiy, chin

ma’nodagi qudrat insonning ma’naviy kamolotidir. Farhod uchun shohlikning “tufroq bila teng”ligiga sabab ham shunda:

Ko‘ngul aylab sen ul shahliq bila keng,
Mening ollimda ul tufroq bila teng.

Dostonda hayot, muhabbat, diydor kabi ko‘p qirrali majoziy ma’noga ega bo‘lgan muhim ramzlardan biri – suv. Suv timsoli asar boshidanoq orziqib kutilgan diydorga ham sababchi bo‘ladi. Navoiy o‘z asarida Nizomiy va Dehlaviydan farqli o‘laroq sut emas, suv arig‘ini qazishni Farhodning zimmasiga yuklaydi. Bu almashinuvning sababi nafaqat badiiy, balki ma’naviy va realistik asosga ham ega. Chunki sut ilohiy mehr-muhabbatning ramzi sanalsa-da, hayotdagi ariqlarda suv oqadi. Shuningdek, suv o‘zini o‘zi poklovchi modda sifatida tasavvufda ruhiy yuksalish va nafsni poklashni ifodalaydi. Zero, Shirin qadimgi mifologik tasavvurda ham suv timsoli ko‘rinishida mashhur bo‘lib, suvning mo‘l-ko‘lligi uchun kurash ramziga aylangani ma’lum. Bundan tashqari, suv dunyoning yaralishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan to‘rt unsur – tuproq, suv, olov va havodan biri ekanligi ham ayon. Yana bir tomoni, suv – ne’matlilik jihatidan ham sutdan ustun. Navoiy bu qarashni ma’naviy-estetik tomondan boyitgan holda o‘z asariga tatbiq qiladi. Qadimgi rivoyatlardan birida Suqrot o‘z shogirdlariga shunday deydi: – Iroda bobida suvdan o‘rnak olishlaringizni istayman. – Suvning irodasi qanday bo‘ladi? – deb so‘rashibdi shogirdlari. – Suvning yo‘lini chapdan to‘ssalar, o‘ngdan oqadi, o‘ngdan to‘ssalar chapdan oqadi, ko‘ngdalangiga to‘ssalar ko‘kka yuksaladi, lekin olg‘a borish istagidan hech qachon voz kechmaydi.

Islomiy ta’limotda suv tahorat va ruhiy poklikka erishish vositasi hisoblanadi. Qur’oni karimning “Zumar” surasida Allohning suv bilan hayot baxsh etishi shunday ifodalanadi: “Alloh osmondan suv yog‘dirdi. Undan yer tiklandi va unda hayot bor...”(Zumar, 21) [6. 460.] Abulasvad Ro‘iyning tahorat qilish uchun sutdan ko‘ra suvni afzal bilishi haqida Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da keltirgan voqea bunga dalildir: “Bodiyada bir kun o‘z ahliga ayttikim, padrud bo‘lki, men bordim. Qiz qardoshi mihtarasin sut bila to‘ldirdi, tahorat vaqti mihtarasdin sut quyildi. Dedikim, anga sutdin suv muhimroqdur. Qaytti, dag‘i mihtarasin sutdin xoli qildi va dag‘i suv bila to‘ldirdi”. [7. 108-109.]

Suv qadimdan Sharq xalqlari uchun eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Zotan, Navoiy Samarqanddagi ta’lim yillari davrida Movarounnahrning geografik holatini o‘rgana boshlaydi. Sayhun (Sirdaryo), Jayhun (Amudaryo) va Ko‘hak suvi (Zarafshon) daryolarining xo‘jalik hayotining rivoji uchun katta ahamiyatga ega ekanini tushundi, daryolardan dehqonchilik ishlari uchun keng foydalanish zaruriyati ustida fikr yuritib, mamlakatni suv bilan ma’mur etishni orzu qildi. [8. 418.] Hirotda ko‘plab hovuz va ariqlar qazdirgan Navoiy o‘zining suv haqidagi orzu-istaklarini Farhod obraziga singdiradi. Farhod suv chiqarishdek mashaqqatli mehnati bilan o‘z muhabbatini isbotlay oldi. Shu bilan bir qatorda, suv timsoli: 1. Zohiriy ma’noda – hayot, muhabbat va real fidokorlik; 2. Botiniy ma’noda – ruhiy tozalik va ma’naviy safar ma’nolarini ifoda etadi.

Navoiy Farhodning muhabbatini tasvirlash jarayonida uning ijtimoiy ma’suliyatni ham o‘z zimmasiga olganiga ishora qiladi. Ya’ni shoir o‘z qahramoni vositasida jamiyat va xalq uchun manfaat, foyda keltiradigan ideal va komil inson timsolini yaratishni maqsad qilgan. Aslida, Farhodning tog‘-u toshni yorib, suv chiqarishi insonning o‘z nafsi bilan kurashishi, ichki dunyosini o‘zgartirishi va ilohiy murodga erishish yo‘lidagi ajz-u riyozatlarning ramzidir. Bu mehnat tufayli el-ulus ravnaqi, farovonligi ko‘zlangan bo‘lib, u tasavvufdagi “xalqqa xizmat qilish – Xudoga xizmat qilish” degan muhim g‘oya bilan ham o‘zaro bog‘liq.

Shunisi e’tiborliki, xoqon Farhod sog‘ligini tiklash uchun uni dengiz sayohatiga olib chiqadi. Biroq dengizda to‘satdan kuchli to‘fon boshlanadi: Tengiz ul nav’ chayqaldiki aflok,

Ko‘rundi suv uza andoqki ko‘lok.

Dengiz shunday chayqalardiki, osmon dengiz ustidagi shamol bo‘lib ko‘rinadi. To‘lqinning kuchliligidan suvni ko‘kkacha yetkazar edi. Bob sarlavhasida Qur’oni karimdagi “Dengizlar to‘lib-toshsa...”(Takvir, 6) oyatini keltirilgan. Bu oyatda qiyomat kunida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar haqida fikr yuritilgan. Misralardagi dengiz tasviri suradagi oyatlarni yodga soladi. Aslida, suraning boshlang‘ich qismlarida bir nechta olamshumul hodisalar tilga olinadi, ya’ni quyosh o‘ralib qo‘yilganda, yulduzlar yorilib yo‘qolganda, tog‘lar siljib ketganda kabi. “Dengizlar to‘lib-toshsa...” oyatini mufassirlar turlicha ta’vil qilishadi: 1. Dengizlar bir-biriga qo‘shilib ketadi. 2. Dengiz suvlari ko‘tarilib, yer yuzi to‘lib-toshadi.3. Qiyomatning dahshatli holatida dengizlar alangaga aylanadi.

Shoir tabiatdagi ulkan to‘fonni Qur’onda keltirilgan oyatlar bilan ramziy-badiiy ma’noda shunday talqin qiladi: 1. Dengizdagi to‘fon – muhabbat to‘foni, ya’ni Farhodning Shiringa bo‘lgan sevgisi hattoki tabiat tartibini izdan chiqaradigan darajada kuchli. 2. Dengiz – Farhodning ruhiy holati, ya’ni qalb iztiroblari, tuyg‘ulari kabi to‘lib-toshadi. 3. To‘lqinlar – qalb to‘lqinlari va sevgi shiddati.

Xulosa qilib aytganda, dostonda tuproq va suv timsollari nafaqat tabiat unsurlari, balki ma’naviy yuksalish va qahramonlar ruhiyatini ifoda etuvchi badiiy timsollar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бадиий адабиёт ва тасаввуф тимсоллари. – Тошкент: 2010. – 199 б.
2. Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. – Тошкент: Камалак, 1991. –Б.101.
3. Ҳаққулов И. Ирфон ва идрок. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 160 б.
4. Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – 208 б.
5. Ҳаққул И. Мушоҳада ёғдуси. – Тошкент: Сарвар принт, 2024. – 108 б.
6. Қуръони Карим. Таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Мунир, 2021.– 624 б.
7. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Ўнинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012. – 692 б.
8. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – 748 б.